

JAMOATCHILIK NAZORATINING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI

Babaxanova Aziza Ismatovna

Toshkent viloyati yuridi texnikumi o'quvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8278296>

Annotatsiya: mazkur maqolada jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning vujudga kelishi hamda rivojlanish asoslari, jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning rivojlanishi borasida olimlarning turli xil qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, jamoatchilik kengash, davlat nazorati.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsada, ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan T.Tard tomonidan olib kirilgan. Uning tavsifiga ko'ra, mazkur tushuncha jinoyatchining xulqini qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar yig'indisini ifodalagan. Amerikalik sotsiologlar E.Ross, R.Park tadqiqotlarida jamoatchilik nazorati shaxsga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos kelishtirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

Davlat va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatishning zarurligini buyuk alloma va faylasuflar ham ta'kidlab o'tishgan. Masalan, Arastu o'zining asarlarida xalqning hukmdorlar, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazoratini davlatning siyosiy barqaroqligi hamda rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri deb hisoblagan[1].

Abu Nasr Farobiy esa "hukmdorlar xalq oldida hisobot berib turishlari va ularning qonunlarga so'zsiz bo'ysunishlari zarur[2] ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Sh.Monteske jamiyat hukumatsiz mavjud bo'lmasligi, ammo mavjud qonunlar fuqarolarga hukumat faoliyati ustidan nazorat qilish imkoniyatini berishini[3] ta'kidlaydi.

Jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish usuli hisoblanadi. Ushbu usul huquqiy me'yorlar yordamida va mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barorlikni ta'minlash uchun o'tkaziladi. Jamoatchilik nazoratining xarakteri, mazmuni, yo'naltirilganligi ushbu ijtimoiy tizimning mohiyati hamda tipi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan murojaat qilganda, ularning so'rovlari qayd etilgan kundan boshlab, 15 kun ichida ko'rib chiqilishi belgilandi. Ommaviy axborot vositalarining eksprement subyektlari faoliyati, mansabdor shaxslar bilan intervyu o'tkazish to'g'risidagi so'rovlari esa, yetti kundan oshmagan muddatda ko'rib chiqilishi belgilandi.

Bundan tashqari, inson manfaatlari, uning kundalik ehtiyojlarini ta'minlashda ijro hokimiyati organlarining o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda, tadqiqot va ijtimoiy so'rov natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aynan davlat organlari faoliyati davomida inson huquqlarining buzilishi, hokimiyat vakolatlari suiiste'mol qilinishi holatlari ko'plab uchrab turibdi. Shuning uchun, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amaliy jihatdan, takomillashtirilgan qonunchilik bilan qat'iy o'rnatish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuningdek, jamoatchilik nazoratini o'rnatishda nazorat shakl va uslublarini ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, tizimni modernizatsiya qilish zarurati mavjud.

Jamoatchilik nazoratini va boshqa nazoratlarning o'rnatilishi va amalga oshirilishidan asosiy maqsad nima degan tabiiy savol yuzaga keladi.

Bundan ko'zlangan muhim maqsad huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish va uni takomillashtirib borishdan va bu orqali mamlakatni har taraflama rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Shu o‘rinda, bu boradagi ilg‘or tajribadan kelib chiqqan holda kelgusida jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini oshirishda quyidagi tashkiliy-huquqiy islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, kengashlar faoliyatini axborot-maslahat ta‘minotini yaxshilash uchun jamoatchilik kengashlari amalga oshirayotgan faoliyatni yoritib borishga bag‘ishlangan veb-sayt yuritish va ijtimoiy tarmoqlarda aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish lozim. Masalan, Qozog‘iston Respublikasida mana shu faoliyat bilan “kanken.kz” veb-sayti shug‘ullanib kelmoqda. Shu bois, aholi davlat boshqaruvi, kengash faoliyati to‘g‘risida doim xabardor bo‘lib, bu orqali ularning huquqiy ong va madaniyati, shuningdek, davlat boshqaruvidagi ishtirok darajasi yuksalib bormoqda;

ikkinchidan, jamoatchilik kengashlari faoliyatida qo‘llaniladigan barcha hujjatlar (fuqarolarni qabul qilish jadvali, bayonnoma, jamoatchilik nazorati natijalari to‘g‘risida bayonnoma, hisobot va boshqalar) uchun yagona standartni joriy etish, jamoatchilik kengashlari faoliyatiga bag‘ishlangan seminar-treninglar o‘tkazish, shuningdek, kengash a‘zolarini jamoatchilik ekspertizasi, monitoringi kabi nazorat shakllarini amalga oshirishga o‘rgatish bo‘yicha samarali o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etish va o‘z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan uslubiy qo‘llanma yaratish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, jamoatchilik kengashini shakllantirish tartibini demokratlashtirish, ular a‘zolarining 1/3 qismini nodavlat notijorat tashkilotlarining sohaga tegishli vakillaridan, 1/3 qismini xalqparvarligi bilan alohida ajralib turgan, o‘z vazifalarini mas‘uliyat bilan bajarayotgan, xalqning ishonchini oqlagan davlat organlari xodimlaridan hamda 1/3 qismini fuqarolardan shakllantirish maqsadga muvofiq. Natijada, kengashlarda davlat organi vakillari va jamoatchilik o‘rtasida mutanosiblik ta‘minlanadi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turganidek, jamoatchilikning davlat siyosatini olib borishdagi o‘rni katta.

2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham jamoatchilik nazorati o‘rnatish, xalq hokimiyatchiligiga keng imkoniyat yaratish borasida muhim qadam bo‘ldi. Uning birinchi yo‘nishi ham aynan mamlakatni demokratik tarzda qayta qurish, davlat organlari faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini ta‘minlovchi samarali mexanizmlarini yaratish hamda ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini faollashtirish zarurligi belgilangan edi. Bu esa jamoatchilik nazoratining huquqiy ildizlari yaratilishi jarayoni hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishning mantiqiy davomi sifatida 2021-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Unga ko‘ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari tomonidan ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati tasdiqlanishi

belgilandi[4]. Ro'yxatga ma'lumotlarning 33 xil toifasi kiritilgan. Ushbu turdagi ma'lumotlarning ochiq qilinishi jamoatchilikda mustaqil surishturuvlar olib borish imkoniyatini oshiradi.

Ushbu Farmonga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi Adliya vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda tahlillar asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini yanada kengaytirish bo'yicha doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritib borishi maqsad qilinganligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha sohaga oid faoliyatini keng jamoatchilik ko'z oldida yoritib borish va ularda davlat boshqaruvga bo'lgan ishonchni orttirishga xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, ushbu Farmonning jamoatchilikka taalluqli jihati shundaki, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari har yili 1-martga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotni (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno) rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10-martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berishi belgilab qo'yilganligi hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib shunday prognoz qilish mumkin:

agar ushbu Farmon ijrosi to'liq ta'minlansa, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiq va shaffofligi ta'minlanadi, ularning korrupsion holatlarga yo'l qo'yish darajasi keskin pasayadi va buning natijasida faoliyatidan o'z ixtiyoriga ko'ra jamoatchilikni xabardor qilish faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Farmonda barcha davlat organlari, xususan, Oliy Majlis palatalari, barcha vazirliklarning rasmiy veb-sayti tashkil etilishi va har bir vakolatiga doir vazifalarni bajarish jarayonlari saytda yoritib borilishi davlat va jamiyat o'rtasida keskin tafovut bo'lmasligi, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi va boshqaruvga doir holatlarda xalq fikri bilan hisoblashishi davlatning maqsadi bo'lgan huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Monitoring o'tkazish "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunda ham jamoatchilik nazorati olib borishning muhim shakli sifatida ko'rsatilgan. Lekin, ushbu huquqiy asoslarda belgilangan shartlar amalda o'z ifodasini to'laqonli topmayotganligi tajribadan ma'lum. Ya'ni, jamoatchilik nazorati subyektlari bu kabi monitoringni erkin, istalgan vaqtda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmayapti. Bundan tashqari, davlat organlari faoliyatining ochiq shaklda olib borilishi holatlari ham kamdan kam uchrashi jamoatchilik monitoring va boshqa shu kabi nazorat shakllarini olib borilishiga imkoniyat bo'lmayotganligidan darak beradi.

Jamoatchilik nazoratining tarixiy asoslariga 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni ham misol tariqasida keltirish mumkin. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu bilan birga fuqarolar zimmasiga yuklatiladi[5]. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilingunga qadar ham sohaga oid qonunchilikda subyektlar va nazorat shakllari o'z ifodasini topgan edi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda hamda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda, fuqarolarga tezkor va ishonchli axborotni yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish va demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida ularning mavqei va nufuzini oshirish dolzarb masala

ekanligi ham ushbu qonunda ilgari surilgan edi. Qonun ham jamoatchilik nazoratining yaqin o'tmishdagi tarixiy asosi hisoblanadi, ammo, fikrimizcha, ushbu qonun normalari to'liq amalga oshganda edi, undan keyingi qonunchilik hujjatlari ham ushbu qonun normalarini takrorlamagan bo'lar edi.

2018-yil 12-aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev tomindan imzolandi. Ushbu qonun 21 moddadan iborat bo'lib, qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tizimidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat[6]. Qonunda jamoatchilik nazorati subyekti, obykti, asosiy prinsiplari, jamoatchilik nazorati shakllari va boshqa masalalar mustahkamlangan. Ushbu Qonun fuqarolarning huquq, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishini, qonun hujjatlari talablariga davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomidan og'ishmay rioya etilishini, ular oldida turgan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatli hioblanadi.

Davlat nazorati jamoatchilik nazorati bilan qo'shib olib borilganda samaradorlik darajasi bugungi kundagi taraqqiyot talablari darajasiga ko'tarilishi mumkin. Jamoatchilik nazorati davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi hodisa hisoblanib, bu ikki institut o'rtasida ommaviy va xususiy manfaatlar balansini saqlashga xizmat qiladi. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rtilish bo'yicha qonun hujjatlari mustahkam emas. Ularda bartaraf etilishi kerak bo'lgan kamchiliklar nihoyatda ko'p, bundan tashqari qonunlar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, ularning hammasi amaliyotga tatbiq etilmagan. Jamoatchilik nazorati subyektlarining ham huquqiy ong va madaniyatini ko'tarish chora-tadbirlari ko'rilishi lozim. Ular nazorat shakllarini amalga oshirish jarayonlari umuman sust darajada. Nazoratning samarali mexanizmi yo'lga qo'yilmaganligi, davlat organlari faoliyatida qonunga xilof xatti-harakatlar qilinishiga sabab bo'lmoqda.

References:

1. Aristotel. "Siyosat". T.: Yangi asr avlodi.24-b.
2. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". T.: Xalq merosi. 34-b.
3. Sh.Monteske. "Qonunlar ruhi". -T.: "Yangi asr avlodi". 23-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2021. URL: [https:// www. uza.uz](https://www.uz.gov)
5. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" O'RQ-419-son. 03.01.2017. 3-modda. URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>
6. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018. 03/18/474/1062-son. [https // www. lex.uz](https://www.lex.uz)